



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 242 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari.....	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinov To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari	158
<i>Radjapova Xuzra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi.....	191
Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati.....	197
Inoyatova Zulfiya Xamdamovna	
Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari.....	199
Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi	
Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish	203
Kayumov Oybek Achilovich	
Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.....	209
Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.....	211
Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna	
Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish	214
Rayimova Shahlo Sobirjon qizi	
STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari	217
Toshev Elbek Choriyevich	
Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli.....	223
Usmanov Botir Allaberdievich	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati.....	227
Xalilova Dilnoza Furkatovna	
Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni	230
Xodiyeva Dilrabo Pirimovna	
Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education	233
Yunusova Nodira Akhmadjanovna	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	237
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	



STEAM TA'LIMIDA IJTIMOIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Toshev Elbek Choriyevich

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat kazmi
metodik xizmat bo'limi metodisti

Annotatsiya: Mazkur maqolada STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ta'limi sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish metodlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqotga kirishishi, hamkorlik faoliyatini tashkil etishi, muammoli vaziyatlarda moslashuvchan qarorlar qabul qilishi hamda empatik munosabat bildirish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtirgan integrativ sifat sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, STEAM ta'limi asosida tashkil etilgan metodik yondashuvlar o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitish, muloqot madaniyatini rivojlantirish hamda ularning ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur metodlarning amaliyotga joriy etilishi ijtimoiy intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik tizimlarni takomillashtirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, ijtimoiy intellekt, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'rganish, ijtimoiy kompetensiya, pedagogik metodlar.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of methods for developing students' social intelligence in the context of STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) education. Social intelligence is interpreted as an integrative quality that embodies a person's ability to effectively communicate in a social environment, organize cooperative activities, make flexible decisions in problematic situations, and express empathetic responses. The results of the study show that methodological approaches based on STEAM education serve to enrich students' social experience, develop a culture of communication, and increase their level of social adaptation. The implementation of these methods in practice serves as an important methodological basis for improving modern pedagogical systems aimed at developing social intelligence.

Key words: STEAM education, social intelligence, project-based learning, problem-based learning, collaborative learning, social competence, pedagogical methods.

Аннотация: В данной статье представлен научно-теоретический анализ методов развития социального интеллекта учащихся в контексте STEAM-образования (наука, технологии, инженерия, искусство, математика). Социальный интеллект интерпретируется как интегративное качество, воплощающее способность человека эффективно общаться в социальной среде, организовывать совместную деятельность, принимать гибкие решения в проблемных ситуациях и проявлять эмпатию. Результаты исследования показывают, что методические подходы, основанные на STEAM-образовании, способствуют обогащению социального опыта учащихся, развитию культуры общения и повышению уровня их социальной адаптации. Внедрение этих методов на практике служит важной методологической основой для совершенствования современных педагогических систем, направленных на развитие социального интеллекта.

Ключевые слова: STEAM-образование, социальный интеллект, проектное обучение, проблемно-ориентированное обучение, совместное обучение, социальная компетентность, педагогические методы.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni murakkab ijtimoiy va texnologik muhitga moslashuvchan hamda ijodiy fikrlay oladigan individ sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, raqamli transformatsiya va innovatsion faoliyatning kengayishi ta'lim mazmuniga yangi talablarni qo'yimoqda. Shu bois, o'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish, ularni jamoada ishlashga, samarali muloqotga kirishishga va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga tayyorlash dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda^[1].

Ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy vaziyatlarni anglash, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, hamkorlik faoliyatini tashkil etish hamda ijtimoiy muammolarni konstruktiv hal etish qobiliyatlarini o'zida mujas-

samlashtirgan integrativ sifat sifatida qaraladi. Ushbu tushuncha zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy idrok, empatiya, kommunikativlik va reflektiv tafakkur komponentlari orqali izohlanadi ^[2]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy intellekt darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar ta'lim jarayonida faolroq va moslashuvchanroq bo'ladi.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ta'limi ushbu jarayonda muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv fanlararo integratsiyani ta'minlab, o'quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi. STEAM muhitida tashkil etilgan loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar va jamoaviy ish shakllari o'quvchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish uchun samarali pedagogik sharoit yaratadi ^[3].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy intellektga oid qarashlar faqat zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga xos emas. Ularning nazariy ildizlari Sharq mutafakkirlari merosida ham uchraydi. Abu Nasr Forobiy insonning jamiyatdagi o'rni, hamkorlik va ijtimoiy uyg'unlik masalalarini asoslab, shaxs kamoloti ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi ^[4].

Abu Ali ibn Sino esa shaxs rivojida ijtimoiy muhit, tarbiya va amaliy faoliyatning muhim o'rni borligini ilmiy asoslaydi ^[5].

Zamonaviy o'zbek pedagogika fanida ham ijtimoiy rivojlanish va kompetensiyalarni shakllantirish masalasi keng yoritilgan. Jumladan, N.A. Muslimov ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi ^[6].

J.G'. Yo'ldoshev esa pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini asoslab beradi ^[7].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy intellektni rivojlantirish masalasi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lsa-da, uni aynan STEAM ta'limi metodlari asosida kompleks tarzda o'rganish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlarining pedagogik va psixologik asoslarini integrativ yondashuv asosida ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.

Shu bois, mazkur tadqiqot STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlarini ilmiy asoslash, ularning samaradorligini aniqlash hamda ta'lim amaliyotiga joriy etish yo'llarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Ushbu masalaning ilmiy jihatdan asoslanishi o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, ularning kommunikativ va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quvchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ta'limi sharoitida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni ijtimoiy hayotga moslashuvchan va faol ishtirok etuvchi individ sifatida shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ijtimoiy intellekt tushunchasi dastlab XX asr boshlarida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u shaxsning ijtimoiy muhitni anglash, boshqa insonlar bilan samarali muloqot o'rnatish hamda ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa ushbu tushuncha empatiya, kommunikativlik, ijtimoiy moslashuv va reflektiv tafakkur kabi komponentlarni o'z ichiga oluvchi murakkab integrativ hodisa sifatida talqin etiladi.

Ijtimoiy intellektga oid ilmiy qarashlarning tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari merosida ham uchraydi. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida shaxsning jamiyat bilan uyg'unlikda yashashi, o'zaro hamkorlik va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil etish zarurligini asoslab beradi. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti insonlar o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro tushunish darajasiga bog'liq. Abu Ali ibn Sino esa inson kamolotida ta'lim, tarbiya va ijtimoiy muhitning hal qiluvchi o'rni borligini ta'kidlab, shaxsning shakllanishida faoliyat va tajribaning muhimligini ilmiy asoslaydi. Mazkur qarashlar bugungi kunda STEAM ta'limida qo'llanilayotgan faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv bilan uyg'unlik kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish ko'proq faoliyatga asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim va hamkorlikda o'rganish metodlari o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. STEAM ta'limi aynan ushbu metodlarni integrativ tarzda qo'llashga imkon berib, o'quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi. Natijada o'quvchilar jamoada ishlash, muammolarni birgalikda hal etish va o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalarini egallaydilar.

O'zbek pedagogika fanida ham shaxsning ijtimoiy rivojlanishi va kompetensiyalarini shakllantirish masalasi keng o'rganilgan. Jumladan, M.Q. Quronov oila va ta'lim muhitining o'zaro uyg'unligi shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim omil ekanini ta'kidlaydi.

J.G'. Yo'ldoshev zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini asoslab beradi.

V.M. Karimova esa ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida shaxs rivojida muloqot va emotsional muhitning



hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Ushbu qarashlar STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarning ustuvorligi ijtimoiy intellektni rivojlantirish masalasiga yangicha qarashni talab etmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv shaxsni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, bunda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish muhim o'rin tutadi. STEAM yondashuvi esa ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lib, u o'quvchilarning bilimlarini fanlararo integratsiya asosida shakllantiradi. Integrativ yondashuv esa ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etib, unda turli faoliyat turlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi. Natijada o'quvchilar bilimlarni amaliyotda qo'llash, muammolarni hal etish va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy intellektni rivojlantirish masalasi keng o'rganilgan bo'lsa-da, uni aynan STEAM ta'limi metodlari asosida kompleks tarzda tadqiq etish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim va hamkorlik metodlarining ijtimoiy intellekt rivojiga ta'sirini tizimli ravishda o'rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.

Shu bois mazkur tadqiqot STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlarini ilmiy asoslash, ularning pedagogik samaradorligini aniqlash hamda ta'lim amaliyotiga tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, ularning kommunikativ va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi STEAM ta'limi sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish metodlarining pedagogik samaradorligini aniqlash, ularni ilmiy asoslash hamda umumiy o'rta ta'lim tizimida amaliy joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar hamda STEAM ta'limining integrativ tamoyillariga asoslanib shakllantirildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida konstruktivistik ta'lim nazariyasi, tajribaga asoslangan o'qitish konsepsiyasi hamda ijtimoiy o'rganish nazariyalari tanlandi. Ushbu yondashuvlar o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qarash, uning bilimlarni mustaqil ravishda egallashini ta'minlash hamda ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi^[8].

STEAM yondashuvi tadqiqotda asosiy metodologik yo'nalish sifatida qaralib, u fanlararo integratsiya, muammoli vaziyatlar va loyihaviy faoliyat orqali o'quvchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv doirasida loyiha asosida o'qitish (project-based learning), hamkorlikda o'rganish (collaborative learning) va muammoli ta'lim metodlari asosiy pedagogik vositalar sifatida tanlandi^[9].

Tadqiqot obyekti – umumiy o'rta ta'lim muassasalarida STEAM ta'limi jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti – STEAM ta'limi asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonda ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari, ularning mazmuni, shakllari va samaradorlik ko'rsatkichlari.

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik izlanishlarning kompleks metodlaridan foydalanildi. Jumladan:

- nazariy metodlar (tahlil, sintez, umumlashtirish) orqali ijtimoiy intellekt va STEAM ta'limiga oid ilmiy adabiyotlar o'rganildi;
- empirik metodlar (kuzatish, suhbat, anketa, test) yordamida o'quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasi va ularning jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki aniqlashtirildi;
- pedagogik tajriba-sinov metodi orqali STEAM asosida ishlab chiqilgan metodlar amaliyotga joriy etildi;
- diagnostik metodlar asosida ijtimoiy intellektning kommunikativ, emotsional va xulqiy komponentlari baholandi;
- matematik-statistik metodlar yordamida olingan natijalar tahlil qilinib, ularning ishonchligi aniqlandi.

Tadqiqot umumiy o'rta ta'lim muassasasida olib borilib, unda jami 48 nafar o'quvchi respondent sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqotda 5–7-sinf o'quvchilari qamrab olinib, ularning ijtimoiy intellekt darajasi STEAM asosidagi mashg'ulotlar jarayonida o'rganildi. Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi:

- **1-bosqich – diagnostika bosqichi**, bunda o'quvchilarning dastlabki ijtimoiy intellekt darajasi aniqlanib, mavjud holat tahlil qilindi;

- **2-bosqich – tajriba-amaliy bosqich**, bunda STEAM yondashuvi asosida loyihaviy va hamkorlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etildi;
- **3-bosqich – yakunlovchi bosqich**, bunda olingan natijalar tahlil qilinib, ularning samaradorligi baholandi.

Mazkur tadqiqotda STEAM ta'limi asosida tashkil etilgan metodlarning ijtimoiy intellektni rivojlantirishdagi samaradorligi o'quvchilarning muloqot faolligi, jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalari hamda ijtimoiy moslashuv darajasi orqali baholandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi qo'llanilgan metodlarning ilmiy asoslanganligi, tajriba-sinov ishlarining izchilligi hamda olingan natijalarning statistik tahlili bilan ta'minlandi. Shuningdek, natijalar zamonaviy ta'lim talablari bilan solishtirilib, ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlari asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlil hamda tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, STEAM ta'limi asosida tashkil etilgan pedagogik metodlar o'quvchilarning ijtimoiy intellektni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish, hamkorlikda o'rganish va muammoli vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning muloqot faolligi, jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki va ijtimoiy moslashuv darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tajriba-sinov ishlari davomida 5-7-sinf o'quvchilari ishtirokida STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan darslar tizimli ravishda joriy etildi. Ushbu jarayonda o'quvchilar kichik guruhlarda ishlash, loyihalar yaratish, muammolarni birgalikda hal etish hamda natijalarni taqdim etish faoliyatlariga jalb qilindi. Natijada o'quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

1-jadval: O'quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasidagi o'zgarishlar

Daraja	Tajriba oldin	Tajriba keyin
Yuqori	17%	33%
O'rta	49%	46%
Past	34%	21%

Olingan natijalar quyidagilarni ko'rsatadi:

- yuqori darajadagi ijtimoiy intellektga ega o'quvchilar ulushi 16% ga oshdi;
- past darajadagi ko'rsatkich 13% ga kamaydi;
- o'quvchilarning muloqot faolligi va hamkorlik ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi;
- guruhda ishlash va muammolarni hal etish jarayonida o'quvchilarning tashabbuskorligi ortdi.

Mazkur natijalar STEAM ta'limi asosida tashkil etilgan metodlarning ijtimoiy intellektni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi. Xususan:

- loyihaviy faoliyat muammoli fikrlash va mas'uliyatni oshirdi;
- hamkorlik metodlari kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirdi;
- reflektiv tahlil o'zini baholash va ijtimoiy anglashni kuchaytirdi.

Shunday qilib, STEAM ta'limi asosida qo'llanilgan metodlar o'quvchilarning ijtimoiy intellektni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi tajriba-sinov natijalari orqali tasdiqlandi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish shuni ko'rsatadiki, STEAM ta'limi asosida o'quvchilarning ijtimoiy intellektni rivojlantirish murakkab, ko'p omilli pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy intellekt shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda, ta'lim muhiti, faoliyat jarayoni va ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog'liq holda shakllanuvchi integrativ sifat sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, STEAM yondashuvi ijtimoiy intellektni rivojlantirish uchun samarali pedagogik muhitni ta'minlovchi kompleks model sifatida e'tirof etiladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, STEAM ta'limi asosida tashkil etilgan loyihaviy va hamkorlikka yo'naltirilgan faoliyatlar o'quvchilarning muloqot madaniyati, empatik munosabatlari va jamoaviy faoliyatdagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bu holat loyiha asosida o'qitish yondashuvi o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitib, ularni real hayotiy vaziyatlarda faol ishtirok etishga tayyorlashini tasdiqlaydi ^[10].

Shuningdek, tadqiqot natijalari faoliyatga asoslangan o'qitish modeli bilan hamohang ekanligi kuzatildi. Mazkur modelga ko'ra, bilim va ko'nikmalar amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi va mustahkamlanadi. STEAM



ta'limida qo'llaniladigan loyihaviy va muammoli metodlar aynan shu jarayonni ta'minlab, o'quvchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirishga xizmat qiladi ^[11].

Hamkorlikda o'rganish metodlari ijtimoiy intellektni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Guruhda ishlash jarayonida o'quvchilar o'zaro muloqotga kirishadi, fikr almashadi va birgalikda yechim topishga intiladi. Bu jarayon ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi ^[12].

Integrativ yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, STEAM ta'limi fanlararo aloqadorlik asosida o'quvchilarning bilimlari va ijtimoiy tajribasini uyg'un holda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ularning bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini oshirib, ijtimoiy moslashuv darajasini kuchaytiradi. Mazkur holat o'zbek pedagog olimlari tomonidan ham asoslab berilgan. Jumladan, B.X. Xodjayev ta'lim jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi ^[13].

Shuningdek, Sh.S. Sharipov ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishini ilmiy jihatdan asoslaydi ^[14].

A.K. Abduqodirov esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etadi ^[15].

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, reflektiv faoliyat STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Refleksiya jarayonida o'quvchilar o'z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini anglaydi va kelgusidagi harakatlarini rejalashtiradi. Bu esa ularning ijtimoiy anglash darajasini oshirib, muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, STEAM ta'limida muammoli vaziyatlardan foydalanish o'quvchilarning ijtimoiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli vaziyatlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini kuchaytirib, ularni ijtimoiy jihatdan faol bo'lishga undaydi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, STEAM ta'limida qo'llaniladigan metodlar o'quvchilarning ijtimoiy intellektini kompleks rivojlantirishda samarali pedagogik vositalar hisoblanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati va jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini kuchaytirib, ularning zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi.

XULOSA

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy muhitni anglash, samarali muloqotga kirishish, hamkorlik faoliyatini tashkil etish hamda muammoli vaziyatlarda moslashuvchan qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab integrativ sifat hisoblanadi. Mazkur sifatni rivojlantirish o'quvchilarning nafaqat ta'lim jarayonidagi faolligini, balki ularning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvini ham ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, STEAM ta'limi asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon o'quvchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'rganish va reflektiv faoliyat metodlari o'quvchilarning kommunikativ, ijtimoiy va reflektiv kompetensiyalarini kompleks tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning ijtimoiy tajribasini boyitadi hamda jamoaviy faoliyatda samarali ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tajriba-sinov natijalari ham mazkur xulosalarni tasdiqladi. STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar natijasida o'quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi: yuqori darajadagi ko'rsatkichlar oshdi, past darajadagi ko'rsatkichlar esa kamaydi. Bu esa faoliyatga yo'naltirilgan va integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligini ko'rsatadi. Ayniqsa, guruhli ishlar va loyihaviy faoliyatlar o'quvchilarning muloqot madaniyatini, empatik munosabatlarini va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, ijtimoiy intellektni rivojlantirish jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini shakllantirish, ularning faoliyatini tashkil etish va reflektiv fikrlashini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, STEAM ta'limi o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlashda samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy qarashlar bilan ham uyg'un ekanligi aniqlandi. Xususan, zamonaviy tadqiqotlarda STEAM ta'limi o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlarini qo'llash o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning muloqot madaniyatini shakllantirish hamda jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini kuchaytirishda samarali pedagogik yo'nalish hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos holda tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu asosda, kelgusida STEAM ta'limi doirasida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlarini yanada takomillashtirish, ularni turli fanlar kesimida integratsiyalash hamda ta'lim amaliyotiga keng joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
2. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
3. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
4. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
5. Ibn Sino, Abu Ali. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1980.
6. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
8. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 1984.
9. Slavin R.E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. – Boston: Allyn and Bacon, 1995.
10. Blumenfeld P.C., Soloway E., Marx R.W., Krajcik J.S., Guzdial M., Palincsar A. Motivating Project-Based Learning: Sustaining the Doing, Supporting the Learning. – Educational Psychologist, 1991.
11. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009.
12. Gillies R.M. Cooperative Learning: Integrating Theory and Practice. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2007.
13. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
14. Sharipov Sh.S. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
15. Abduqodirov A.K. Axborot texnologiyalari va ta'lim jarayoni. – Toshkent: Fan, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.